

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 20 - dekabr

456-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani “Konshi” MFY hududidan  
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, “Yer to'g'risida”gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi va “Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida”gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi “2021-2025-yillarda sudlarning binolari va xonalarini qurish hamda rekonstruksiya qilish dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi 103-son qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi huzuridagi sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy bo'limining 2023-yil 11-oktabrdagi OSD-95-112-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Chimboy tumani hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan “Konshi” MFY hududidan jinoyat va fuqoralik ishlari bo'yicha Chimboy tumanlararo sudiga qo'shimcha amalda foydalanib kelayotgan 0,0235 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi huzuridagi sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy bo'limidan (A.Shadibekov) belgilangan tartibda:

ajratilgan yer maydoniga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;

ajratilgan yer maydonida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar

tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

ajratilgan yer uchastkasida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralarini ko'rish so'ralsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023-yil 20-dekabrda  
456-13-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasi CHimboy tumani «Konshi MFY» Dosliq guzari kuchasi №27 uyda joylashgan Jinoyat va Fuqarolik ishlari buyicha CHimboy tumanlararo sudibino va koshimcha yer uchun tanlangan yer uchaskasining  
TARXI m-b 1:2000



Yer uchaskasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchaskasi zaxira yer maydonlaridan bo'lib, sharqdan oshiq moydon , g'arbdan Avtomabillar yoli, Dosliq guzari kuchasi, janubdan Petkoledj.

**Koordinatasi**

1. 42°54'12,21" 59°46'36,977" 3. 42°54'9,987" 59°46'38,173"  
2. 42°54'11,616" 59°46'39,043" 4. 42°54'10,576" 59°46'36,117"

Tuman markazidan 1.3 km. radius masofada

Yeruchastkasimaydoni (ga): 0,0235 ga

Yer fondi: Tuman zaxira yer

Ta'qiqlanganligi: Yo'q

**Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi:** Jinoyat va Fukarolik ishlari buyicha CHimboy tumanlararo sudi binosi uchun

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan

Kadastr nomeri: 23:10:13:01:05:5949